

BAMIYA O'SIMLIGINI BIOLOGIYASI, FOYDALI HUSUSIYATI VA ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Xayitbekova Muhlisa Mirkomiljon qizi

Xolmirzayeva Gulira'no Isroiljon qizi

Sodiqova Dono Mahmudjon qizi

Mahammadaliyeva Gulshoda Zafarjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich 16-guruh talabalari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10687519>



Anotatsiya. Maqolada bamiya o'simligining kelib chiqishi, yashash sharoyiti, ko'payish usullari, marfalogiyasi hamda anatomiyasi va shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki dorivor o'simlik bo'lganligi sababli jahon miqyosida juda katta e'tiborga ega o'simliklar ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Bamiya, gulxayridoshlar oilasi, gul, meva, barg.

Botanik tasnifi. *Hibiscus esculentus* L., Gulxayridoshlar (*Malvaceae*) oilasining *Hibiscus* turkumiga mansub.

Geografik tarqalishi. Bamiyaning vatani Sharqiy Afrika hisoblanadi. Bamiya navlari sabzavot va tola beradigan guruhlariga bo'linib, Hindiston, Afrika va AQSHda tolali navlari ekilsa, tropik va subtropik mamlakatlarda, Shimoliy Amerika, Janubiy Yevropa, Kavkazorti, Qrim, Ukrainaning janubiy viloyatlarida, O'rta Osiyoda sabzavot ekini sifatida ko'p ekiladi.

Biologiyasi. Bamiya yorug' va issiqsevar o'simlik bo'lib, urug'lari 15-20°C haroratda unib chiqadi. Vegetatsiya davri navlarining biologik xususiyatlari va etishtirish sharoitlariga bog'liq ravishda turli muddatlarda davom etadi. Bamiya kech kuzgacha (noyabr oyining oxirigacha) meva hosil qiladi, o'simliklarga kuzgi sovuq ta'sir qilguncha o'suv davri davom qiladi. Bamiyaning bo'yi asosan 1,5-2 m gacha bo'lib, ya'ni past bo'yli (40-60 sm) va baland bo'yli (150-200 sm) navlari mavjud.

Poyasi tik o'suvchi, yo'g'on, tuklar bilan qoplangan. O'simlik zich ekilgandi poyasi deyarli shoxlanmaydi. Asosiy va yon shoxlari qattiq mayda tukchalar bilan qoplangan bo'lib, terini biroz qichitadi. Uning barglari oddiy, yirik bo'lib, asosan gulxayrining barglariga o'xshab panjasimon ko'rinishga ega. Barglari uzun-kalta, och yashil yoki to'q yashil rangda, ildizi kuchsiz shoxlangan.

Mevasi – cho'zinchoq ko'sak, piramidaga o'xshagan, uch qismi ingichka, 5 tadan 11 tagacha qirrali ko'p urug'li ko'sakcha, uzunligi 6-30 sm, asosining eni 1-



2,5 sm, to'g'ri yoki biroz egilgan ko'rinishga ega. Ko'sak mevasi to'liq pishgandan keyin yorilib, urug'lari to'kiladi. Urug'lari dumaloq, mosh donidan yirik, och yashildan to to'q qo'ng'ir ranggacha, silliq, kattaligi 4-5 mm, 1000 dona urug'ining vazni 48-82 g. Urug'lari unuvchanligini 4-5 yil yo'qotmaydi.

Ko'paytirish usuli. Urug'i va ko'chatidan ko'paytiriladi.

Xususiyatlari va qo'llanilish sohasi. Bamiya o'simligini oziq-ovqat sanoatida – ko'saksimon mevasi, qayta ishlashda – urug'i, tabobatda – urug'i va mevasi iste'mol qilinadi.

Bamiya mevasida 3% oqsil, 0,5% yog', 8% uglevodlar, pishgan urug'lari tarkibida 20% zaytun mevasida uchraydigan ekologik toza moy, 3,8% azotli moddalar, 2,15% qand, 13% organik tuzlar, 22 mg% C vitamini bor.

Bamiya oziq-ovqat va em-xashak ekini sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan istiqbolli o'simlikdir. Yashil massasi chorva mollari uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Uning biomassasi ko'k ozuqa sifatida, o't uni va silos tayyorlashda ishlatiladi. Bamiyaning 3-5 kunlik yosh ko'saklaridan ajoyib sho'rvalar, garnirlar va tansiq gazaklar tayyorlash mumkin. Yam-yashil rangdagi ko'saklarini qaynatish, qovurish mumkin, ularni quritib, muzlatib, konservalab qishga olib qo'yiladi. O'simlik tarkibida (yosh ko'saklari va urug'i) inson organizmi uchun foydali bo'lgan oqsillar, askorbin kislotalari, V guruhi vitaminlari, shuningdek katta miqdorda yopishqoq moddalari bo'lganligi bois undan tayyorlanadigan taomlar oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'rigan bemorlar uchun qimmatli parhez taom bo'lib hisoblanadi. Bamiya qaynatmasidan nafas yo'llari kasalliklari, xususan bronxit va yo'talni davolashda foydalaniladi. Uning poyasidan oq dag'al tola olish ham mumkin.

Oziq-ovqat sanoatida – ko'saksimon mevasi xomligicha, pishirib va qovurib iste'mol qilish mumkin.

Qayta ishlashda – mevasidan – konserva mahsulotlari, urug'idan – sun'iy kofe, poyasidan – oq dag'al tola ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Tabobatda – oshqozon kasali bilan og'riganlarga ham shifobaxsh ekin sifatida qo'llaniladi.

Respublikamizda bamiya ekinini etishtirish, aholini vitaminlarga boy sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash, ularning assortimentini kengaytirish va eksportga salohiyatini oshirish yo'nalishida amalga oshirish mumkin.

Yetishtirish hududi va tuproq-iqlim sharoitiga bo'lgan talabi. Tuproq sharoitiga talabchan. O'zbekistonning markaziy va janubiy hududlardagi o'tloqi-botqoq va bo'z tuproqli unumdor, suv bilan ta'minlangan maydonlarda etishtirishga mos. Bamiya o'simligi bo'z, o'tloq va o'tloq-botqoq tuproqlarda

yaxshi o'sadi. Sizot suvlari yuza joylashgan, shuningdek, sho'rlangan tuproqlar bamiya uchun unchalik yaramaydi. Karam, bodring va piyoz bamiyadan oldin ekiladigan eng yaxshi ekin hisoblanadi.

1 ga ekin maydonida urug' hajmi va qiymati. Har 1 ga ochiq maydonga ekish uchun etarlik miqdorda ko'chatini tayyorlash uchun 10-12 kg hisobida sifatli urug' sarflanadi.

Parvarishlash. Bamiya urug'i yoki ko'chat tuproq harorati 12-14°S bo'lganda o'tkaziladi. Ko'chatlarning barqaror unib ketishi uchun issiqlikdan tashqari etarli miqdorda namlik bo'lishi zarur.

Bamiya urug'i yoki ko'chatini 70×20-30 sm ekish sxemasi ekiladi. Ko'chat tayyorlab ekilganda urug' sarfi 2-3 kg/ga bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri dalaga urug'i bilan ekilganda gektariga urug' sarfi 10-12 kg ni tashkil qiladi.

Bamiya urug'lari aprel oyining boshida (aprel oyining birinchi dekadasida) tuproqqa 3-4 sm chuqurlikda, har bir uyaga 2 donadan, qator bo'ylab har 25-30 sm oraliqda ekiladi. Ko'chatlar unib chiqqadan ikki-uch hafta o'tib kuchsiz nozikroq nihollarni olib tashlash, ya'ni yaganalash zarur. O'simlikni parvarishlash murakkab emas.

Mevani pishib etilish muddati nav va duragay biologisi bog'liq bo'lib, o'rtacha hisobda 120-155 kuni tashkil etadi. O'zbekiston sharoitida mevalar sentyabr oyidan pishib etila boshlaydi.

Bamiya o'simliklarining bo'yi 10-12 sm ga etganda qator oralari yumshatiladi. Keyinchalik qator oralig'iga ishlov berish begona o'tlar paydo bo'lishiga qarab mineral o'g'itlar berish va sug'orishdan keyin o'tkaziladi. Mineral o'g'itlar berish 2 marta: ekish davrida o'g'itlar me'yorining yarmi va gullash davrida qolgan qismi, amalga oshiriladi. Bamiya o'simligini o'suv davomida 6-8 marta sug'orish maqsadga muvofiqdir.

Bamiya o'simligi gullab, dastlabki ko'saklari 4-6 sm bo'lganida kesib olinib, oziq-ovqat maqsadlarida ishlatish mumkin. Bamiya tugunchalarini har 3-4 kunda yig'ib olish kerak, chunki ular tez orada dag'allashib iste'molga yaroqsiz bo'lib qoladi.

1 ga ekin maydonidan olinadigan hosildorlik. Bamiya ekinidan olinadigan hosil uning nav va duragaylariga, ekish sxemasi va etishtirish agrotexnologiyasiga bog'liq. 1 gektarga 47620 ta ko'chat ekilsa, 10-12 tonna hosil olish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bamiya o'simligi insonga zararli tomonidan ko'ra foydali tomonlari ko'proq chunki bu o'simlik vitaminlarga boy va bir qancha kasalliklarga shifobaxsh ekan. Bu o'simlik tarkibida inson

organizmi uchun foydali bo'lgan oqsillar, askorbin kislotasi, B guruh vitaminlari mavjud. Bamiya o'simligidan tayyorlangan taomlar oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'rigan bemorlar uchun qimmatli barxez taom bo'lib hisoblanadi. Bamiya qaynatmasidan nafas yo'llari kasalliklari, xususan bronxit va yo'talni davolashda foydalaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Uslubiy qo'llanma. Amirov Artishok qimmatli ozuqa.
2. Ma'ruza matn "Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug'chikigi" AQXAI.
3. Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A. Yaratilgan yangi g'o'za tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.
4. Мирахмедов Ф.Ш., Абдумаликов У.З., Абдумаликов И., Тиллабоев А. Минеральные удобрения и их рациональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интеграционные процессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.
5. Кимсанов И.Х., Кодиров О.А., Рахимов А.Д., Абдумаликов У.З. 6. Изучение морфологических и хозяйственно-ценных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята // Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализации, Белгород, 2019. С. 24-27.